
AHOLI MUROJAATI HAL ETILIB, ICHKI KO'CHALAR SHAG'ALLASHTIRILMOQDA

“Zarkent” MFY Zarkent ko'chasidagi aholi vakillari ichki yo'llari achinarli ahvolda ekanligi haqida murojaat qilib, ushbu ko'chalarni shag'allashtirishda amaliy yordam so'ragan edilar.

Tuman hokimligi tomonidan mahalla aholisining muammolari o'rganilib, ularga yechim topish choralari ko'rildi. Ayni kunlarda 1,2 km.lik ichki ko'chalarda shag'allashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'z navbatida fuqarolar murojaatlari o'z vaqtida yechim topib, ichki yo'lga shag'al yotqizilayotganidan minnatdor bo'lmoqda.

2023-10-19 16:28:22